

**YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLANTIRISHDA
TA'LIM TARBIYANING O'RNI**

**FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUNG PEOPLE
EDUCATION IS THE PLACE OF EDUCATION**

**ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ
ОБРАЗОВАНИЕ – МЕСТО ОБРАЗОВАНИЯ**

Isroilov Davronbek

*Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi*

To'raqulov Shoyusuf

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at
Fakulteti Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi
4-bosqich 402-guruh talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarda turli yod va zararli g'oyalarga qarshi kurashishda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda asosan ta'lim va tarbiyaning o'rni muhim ekanligi va mafkuraviy immunitetni shakllantirishda unga qarshi bo'layotgan asosiy to'siq omillari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mafkura, immunitet, ta'lim va tarbiya, yod g'oyalar, diniy aqidaparastlik, g'oyaviy bo'shliq.

Annotation: This article shows the importance of education and upbringing in the formation of ideological immunity in the fight against various foreign and harmful ideas and the main obstacles to it in the formation of ideological immunity.

Key words: Ideology, immunity, education and training, foreign ideas, religious fanaticism, ideological

Аннотация: В данной статье показано значение образования и воспитания в формировании идеологического иммунитета в борьбе с различными чуждыми и вредными идеями и основные препятствия на пути к нему в формировании идеологического иммунитета.

Ключевые слова: Идеология, иммунитет, образование и обучение, иностранные идеи, религиозный фанатизм, идеологический разрыв.

Bugungi globallashuv shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yashar ekanmiz, kelajagimiz ishonchi bo'lgan yosh avlodga har tomonlama mukammal ta'lim berish, ularni sog'lom fikirli qilib tarbiyalash, turli xil yod va zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini shakllantirish bizning oldimizda turgan asosiy vazifalarimizdan biridir. Yoshlarni buzg'unchi yod g'oyalarning ta'siriga tushib qolmasligi va eng muhimi bu g'oyarga qarshi kurasha olishlarida mafkuraviy immunitetni o'rni beqiyos kattadir.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda asosiy ro‘lni ta’lim va tarbiya egallaydi. Talim va tarbiya berish esa eng avvalo oiladan boshlanadi. Immunitet tibiyotda organizimning o‘zini zararli ta’sirlardan himoya qilishga qodirligini, tananing turli yuqumli kasalliklariga qarshi kurashish xususiyatini anglatadi. Mafkura so‘zi esa fikrlar majmui deganidir. Demak, biz mafkuraviy immunitet deganda turli kasalliklarga qarshi kurashuvchi organizimni emas balki, majoziy ma’noda inson ongining turli yod va zararli g‘oyalarga qarshi kurashishni tushunishimiz zarurdir. Nega aynan biz yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz zarurligini gapirmoqdamiz? Sababini yana tibbiyot bilan solishtiramiz yosh bolalar kattalarga nisbatan jismoniy tomonlama zaifroq bo‘lishadi. Shuning uchun ham bolalar tez kasalga chalinadilar. Bolalar turli xil yuqumli kasalliklarga qarshi kurasha olishlari uchun ular vaksina olib o‘z organizmlarida immunitet hosil qiladilar. O‘z-o‘zidan immunitet faqat bolalarga kerakmi degan savol tug‘ulishi tabiiydir. Yo‘q immunitet birgina bolalarga emas, balki yoshi kata insonlarga ham kerak, lekin yoshi kata insonlar o‘zlarining jismoniy harakatlari bilan kun davomida shug‘ullanganlari bois ularning yashash darajasi bolalarnikidan farq qilganligi sababli bolalar ko‘proq immunitetga muhtoj bo‘ladilar.

Mafkuraviy immunitet ham huddi shunday, ko‘proq yoshlar unga muhtojlik sezadilar. Shuning uchun ham asosan yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish hozirgi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir. Chunki yoshlar kattalarga nisbatan tajribasiz, hayot qonunlarini to‘liq anglab yetmagan oq va qorani ajrata olish darajasiga erishmagan, bolalik davridan o‘tib endigina hayot ostonasiga qadam qo‘yadilar. Ularni esa hozirgi kundagi asosiy maqsadi moddiy boylik ortirish bo‘lgan yovuz kimsalar o‘z yo‘llariga yurdirishni istaydilar. Bugungi kunda esa shunday g‘alamiz insonlarning tuzog‘iga tushib qolayotgan yoshlarga nima sabab bo‘layotganligini quyidagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin;

Birinchi navbatda dunyo qarashning torligidir, xo‘sh dunyo qarashning torligi deganda nimani tushunishimiz zarur? Dunyo qarashning torligi hayotni to‘laqonli tushunib yetmagan, ota-onasidan, ustozlaridan olgan ta’lim va tarbiyani o‘z hayotida qo‘llay olmasligini bir yoqlama fikr yuritishni tushunishimiz zarurdir. Yoshlarda dunyo qarashni kengaytirish uchun ularni bilim egallashga va hunar o‘rganishga o‘rgatish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tishini ta’minlashimiz zarur. Zero hamma yomon ishlar bekorchilikdan kelib chiqadi. Shuning uchun ham yoshlar vaqtini turli xil ijtimoiy tarmoqlarga emas, balki bilim o‘rganishga sarflasagina dunyo qarashi o‘sib boradi. Mafkuraviy immunitetni asosini ham bilim tashkil qilar ekan, bilimli va yetuk salohiyatli yosh avlod o‘zining kuchli mafkuraviy immuniteti bilan yod va zararli g‘oyalarga qarshi kurasha oladi.

Ikkinchidan diniy ilmlarga bo‘lgan qiziqishi. Diniy ilmlarni egallash insonni yetuklik tomon chorlaydi. Lekin ilmlarni egallash bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni egallashga harakat qilmoq joizdir. Chunki hozirgi davrda dinni o‘ziga niqob qilib olib o‘zining g‘arazli niyyatini amalga oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan kimsalarning yer yuzida yashayotganlari barchamizga ma’lumdir. Ular hozirgi kunda o‘z o‘ljasi qilib ko‘pincha yoshlarni tanlamoqda. Asl maqsadi hokimiyatni egallash bo‘lgan bunday diniy aqidaparastlar o‘z maqsadlariga erish yo‘lida har qanday tubanlikka ham tayyordirlar. Biz

esa ertamiz umidi, vatanning ishonchi bo‘lgan yoshlarni shunday razl insonlarning quroli bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarurdir.

Din hamisha insonlarni yaxshilik sari chorlaydigan, ularni ezgu axloq egalari bo‘lishiga xizmat qiladi. Dunyoning turli burchaklarida teroristik va eksteremistik harakatlarni amalga oshirib ko‘plab insonlarning hayotlarini qurbon qilmoqdalar. Bizning asosiy vazifamiz bunday diniy aqidaparastlarning saflarini boyutuvchi emas, balki ularga qarshi kurasha oladigan yetuk salohiyatli, ma’naviy kuchli yoshlarni tarbiyalashimiz zarurdir. Buning uchun eng avvalo diniy ilm egalamoqchi bo‘lgan yoshlarni tanigan-bilmagan shaxslarning qo‘liga emas, balki davlat tomonidan huquqiy kafolatlatgan madrasalarga va diniy ilm olmoqchi bo‘lgan yoshlar ham diniy ilmni ham dunyoviy ilmni egallaydi va umri bo‘yi xalqiga xizmat qiladigan yetek inson bo‘lib kamol topadi.

Uchinchidan birdaniga hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo‘lishga intilish. Har bir inson eng boshidan bir narsani anglab yetishi kerakki bu dunyoda mashaqqat chekmay, mehnat qilmay, ilm egallamay hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Afsuski bu haqiqatni hali hanuz hamma insonlar ham to‘laqonli tushunib yetmaganlar. Ozroq mehnat qilib ko‘proq boylik topishni istaydiganlar ham oramizda uchrab turibdi. Bu ishlarni oldini olish uchun oson yo‘l bilan boylik ortirishni maqsad qilgan insonlarga qonuniy chora ko‘rish, yoshlarga esa mehnat qilib, bilm olibgina yuksak cho‘qqilarni zabt etish mumkinligini o‘rgatmog‘imiz joizdir.

Mafkuraviy immunitetning tizimini shakllantirishda, yod g‘oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo‘qotishga qaratilgan chora tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o‘rni kata hisoblanadi. Mafkuraviy profilaktikani ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g‘oyaviy, tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy ishlar majmui, to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim va tarbiya tizimini qamrab oladi. Ko‘rib turganimizdek mafkuraviy profilaktikani asosini ta’lim va tatarbiya tashkil etadi.

Bolaga ilk yoshidan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak degan savollarga asoslangan oila, mahalla, bog‘cha, maktab tarbiyasi undan keyin esa ijtimoiy tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsagina har bir millatning ertangi kuni yorug‘ va farovon bo‘ladi. Zero millatning kelajagi bugun tarbiya qilayotgan yosh avlodga bog‘liqdir. Har bir bola ilk tarbiyani eng avvalo o‘z oilasida o‘rganadi, keyin esa asata-sekinlik bilan bog‘cha, maktab, litsey, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim bilan bir qatorda tarbiyani ham o‘zlashtira boshlaydi. Bizning hayotimizda har bir ishimiz olgan tarbiyamizning, erishgan yutug‘imiz esa egallagan bilmimizning natijasidir. Eng boshida aytganimizdek bilmning yetishmasligi zararli va yod g‘oyalarning ta’siriga tushib qolishiga sabab bo‘lsa, tarbiyaning yo‘qligi esa jamiyatda o‘z o‘rnini topishni istagan insonga to‘siq bo‘ladi. Xalqimizda bir maqol bor Olim bo‘lma odam bo‘l degan. Bu maqolning tag zahirida insoniylik tuyg‘ulari hamma narsadan ustunligi ko‘rsatib o‘tilgan. Insoniylik tuyg‘usini yo‘qotgan inson o‘z manfaatini o‘ylaydigan razl insonlarning biriga aylanadi, ya’ni yod va zararli g‘oyalarga qarshi kurashishda mafkuraviy immuniteti kuchsiz

bo‘lib, oxir-oqibat yengiladi. Shularni inobatga olgan holda mamlakatimizda yoshlarga ta‘lim bilan bir qatorda tarbiya ham berilmoqda.

O‘zbek xalqining har tomonlama yetuk va komil farzandi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot yo momot, yo najot, yo falokat, yo saodat, yo halokat masalasi”²¹ deb tarbiyaga o‘z qarashlarini namoyon etgan. Tarbiya biz uchun hayot, najot, saodat bo‘lishini yoki momot, falokat, halokat bo‘lishini o‘zimiz tanlaymiz. Tanlovimizning to‘g‘riligi yoki noto‘g‘riligini bugun qilgan ishlarimizning, amallarimizning natijasi ko‘rsatadi.

Mafkuraviy profilaktikaning yana bir asosi bo‘lgan ta‘limga keladigan bo‘lsak ilmiy, ziyoli insondan yomon, razl kimsa chiqmasligi barchamizga ma‘lumdir. Ilm egallagan inson o‘z hayotini va o‘zgalar hayotini doimo mazmunli va foydali o‘tishini istaydi. Shu sababli mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta‘limning o‘rni beqiyos kattadir. Vatanimizda ham ta‘lim olishni istagan har bir inson uchun barcha imkoniyatlar eshigi ochib berilgan.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha quydagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ta‘lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash, ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkasmlash yuzasidan maqsadli chora tadbirlarni ko‘rish shular jumlasidandir.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta‘limdagi bu islohatlarning barchasi yoshlarning kelajagini, manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham ana shu islohatlarning bir bo‘g‘inidir.²²

Ta‘lim olishni istagan har bir insonga moddiy va ma‘naviy tomonlama imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ta‘lim va tarbiyaning o‘rni nimalardan iborat ekanligini ko‘rib chiqdik. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan birga mafkuraviy immunitetni shakllantirishga to‘siq bo‘ladigan omillarga qarshi kurashish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishga to‘siq bo‘aladigan asaosiy omillardan biri bu g‘oyaviy bo‘shliqdir. G‘oyaviy bo‘shliq deb eski hukumron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog‘liq tushunchalarning qadirsizlanishi, o‘tmish, bugungi hayot, kelajakka daxldor qadiryatlar, tushunchalar, tasavvurlarni to‘liq

²¹ Avloniy, A. (1993). “Tarbiya biz uchun yo hayot yo momot, yo najot, yo falokat, yo saodat, yo halokat masalasi.” Tarbiya haqiqatlari. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.

²² Mirziyoyev, Sh. M. (2018). “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

anglab yetmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo‘shliqqa aytiladi.²³ Tajovuzkor mafkuralar bunday bo‘shliqdan foydalanib o‘zlarining, zararli g‘oyalarini singdirmoqchi bo‘lishadi. Shularni inobatga olgan holda biz yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda eng avvalo ularning ongida g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymasligimiz zarur. Inson qalbi va ongida bo‘shliq paydo bo‘ldimi demak u albatta bunyodkor va vayronkor g‘oyalar bilan to‘ldiriladi eng muhimi esa by g‘oyalar faqatgina bunyodkor g‘oyalar qatoriga kirishi lozim. Shulardan kelib chiqqan holda yoshlar ongini va qalbini yod, zararli, vayronkor g‘oyalar egallab olishidan oldin biz yoshlarimizda ta’lim va tarbiya orqali o‘z bunyodkor g‘oyalarimizni singdirishimiz, ularning qalbi va ongida bo‘shliq paydo bo‘ldimi uni hamisha ezgu g‘oyalarimiz bilan to‘ldirmog‘imiz joizdir. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda asosiy ro‘lni ta’lim va tarbiya egalar ekan yoshlarga har tomonlama mukammal darajada ta’lim va tarbiya berishni hayotning o‘zi oldimizga qo‘ygan vazifa ekanligini qalban va aqlan chuqur xis etishimiz zarurdir. Bugungi kunda insonlar ongiga va qalbiga mafkuraviy hujumlar uyushtirilar ekan xalqimizni va yoshlarni ushbu hujumlardan o‘z milliy ma’naviyatimiz, boy tariximiz, asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadiryatlarimizga tayangan holda asrab qolishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2018). “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2. Isroilov, D. (2020). “Yoshlar va mafkura: ta’lim va tarbiyaning ro‘li.” Andijon Davlat Pedagogika Instituti nashriyoti.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi (2017). “Ta’lim va tarbiyaning mafkuraviy immunitetga ta’siri.” Ta’lim va ijtimoiy tizimlar bo‘yicha ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Tashkent: Ta’lim nashriyoti.
4. Rahmatov, T. (2021). “Zararli g‘oyalar va ularga qarshi kurash.” Xalqaro ijtimoiy fanlar jurnali, 5(2), 124-130.
5. Avloniy, A. (1993). “Tarbiya biz uchun yo hayot yo momot, yo najot, yo falokat, yo saodat, yo halokat masalasi.” Tarbiya haqiqatlari. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.

²³ Isroilov, D. (2020). “Yoshlar va mafkura: ta’lim va tarbiyaning ro‘li.” Andijon Davlat Pedagogika Instituti nashriyoti.